

MEROS VA VORISLIK TUSHUNCHALARI

Xashimov Ravshan Rayimjonovich.

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi

Mutaxassislik fanlar kafedrası

o‘qituvchisi, 3-darajali yurist

Annotatsiya: *Meros va vorislik huquqi shaxsning ajiralmas huquqlaridan bo‘lib. Inson yillar davomida amalga oshirgan mexnati maxsuli bo‘lgan va ortirgan mol-mulkini o‘zining vafotidan keyingi taqdirini belgilash imkoniyatidir. Meros meros qoldiruvchidan merosxo‘rga ikki xil usulda o‘tadi, ya’ni, qonuniy merosxo‘rlik va vasiyatnoma asosida. Quyida shu ikki xil asosga to‘xtalib o‘tilgan va meros hamda vorislik tushunchalariga ta’rif berilgan.*

Kalitso‘zlar: *meros, vorislik, meros huquqi, majburiyat, muomala layoqati, mulkiy huquq, vasiyatnoma, qonuniy merosxo‘r, fuqarolik munosabatlari, xususiy mulk, shaxsiy nomulkiy huquq*

Аннотация: *Право на наследование и преемство - это неисчерпаемые права личности. Человек - это возможность определить свою посмертную судьбу, свою собственность, которой он был и приумножил, продукт коктейля, который он готовил на протяжении многих лет. Наследство передается от завещателя к наследнику двумя различными способами: путем преемства по закону и по завещанию. Ниже рассматриваются эти два различных основания и дается определение понятиям наследования и преемства.*

Ключевые понятия: *наследование, наследник, право наследования, требование, обращение, право собственности, завещание, законный наследник, правоведение, частное имущество, номинальное право.*

Abstract: *The right to inheritance and succession is the inexhaustible rights of the individual. Man is the opportunity to determine his posthumous fate of his property, which he has been and has increased, the product of the cocktail that he has carried out over the years. The inheritance is passed from bequest to heir in two different ways, by statutory succession and by Will. The following touches on these two different foundations and gives a definition to the concepts of inheritance and succession.*

Key concepts: *inheritance, heir, right of inheritance, claim, appeal, ownership, will, legitimacy of the heir, jurisprudence, private property, nominal right*

Xalq o‘rtasida meros deganda, vafot etgan shaxsdan qolgan mol-mulk tushuniladi.

Xususiy mulkning mazmuni kengayishi bilan meros huquqining mundarijasi takomillashadi va kengayadi.

Fuqaro vafot etgandan keyin ham uning barcha huquqi va majburiyatlari o'z kuchini saqlab qolmaydi, ayrimlari bekor bo'ladi.

Vafot etgan shaxsning hayotligida boshqa shaxsga o'tishi mumkin bo'lgan uning huquq va majburiyatlari meros tariqasida vorislarga o'tadi.

Shunday qilib, shaxsning hayotligida boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'lgan uning har qanday huquq va majburiyatlari meros hisoblanadi va vorislik huquqi asosida merosxo'rlarga o'tadi.

Aniqroq qilib aytganda, vafot etgan shaxsga tegishli bo'lgan mulk - uy-joy, avtomashina va boshqa mol-mulklar emas, balki shu mol-mulikka nisbatan bo'lgan mulk huquqi meros tariqasida o'tadi.

Vafot etganning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlar meros sifatida boshqalarga o'tmaydi. Masalan, ijtimoiy ta'minot va mehnat qonunlari asosida shaxsning oladigan nafaqa, pensiya va boshqa to'lovlariga bo'lgan huquqlari, fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarda vujudga keladigan shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari.

Har bir shaxs o'z mulkining vafot etganidan so'ngi taqdirini oldindan, hayotligida belgilab qo'yishi mumkin.

Demak, meros deganda, vafot etgan shaxsning mol-mulki, mulkka bo'lgan huquqi, boshqalardan talab qilish huquqi, boshqalar oldidagi majburiyatlari va qarzlari tushunish kerak.

Shunday qilib, meros-bu fuqarolarning hayotligida boshqa shaxslarga o'tishi mumkin bo'lgan uning huquq va majburiyatlari yig'indisidan iborat.

Meros huquqi, fuqarolarning xususiy mulk huquqi bilan chambarchas bog'langan va fuqarolik huquq tarmog'ining huquq tarmoqchalaridan hisoblanadi. Mulk munosabatlari kabi meros va vorislik munosabatlari ham fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi¹.

Meros huquqi - bu fuqaroning vafoti munosabati bilan uning mulkiy, mulk bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy-nomulkiy huquq va majburiyatlarining bevosita qabul qilib olishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

Meros huquqi fuqarolarning mulkiy huquqlari va manfaatlarini qo'riqlash bilan bog'langan bo'lib, ularning o'z mulkiga nisbatan tasarruf etish huquqini hech qanday to'siqsiz, nafaqat hayotligida, shuningdek, vafot etgandan so'ng ham amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Xususiy mulk egasi o'zi vafotidan keyin mulkning kimga o'tishi masalasini meros huquqi asosida hayotligida aniqlab qo'yadi. Shu bilan u xususiy mulk

¹ Давлат ва ҳуқуқ назарияси дарслиги. Тошкент. 2000 й. 323-бет.

huquqining mavqeini mustahkamlaydi, mulkning ko'payishi va rivojlanishini ta'minlash yo'li bilan merosxo'rlarning ham yaxshi yashash va hayot kechirish sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashadi.

Meros huquqi mutlaq huquq bo'lib u qonun bilan kafolatlangan. Bu huquqdan barcha fuqarolar, ularning millati, ijtimoiy ahvoli, mulkiy boyligi, jinsi va diniy e'tiqodi, xizmat vazifasidan qat'i nazar, barobar foydalanadilar.

Shunday qilib, meros huquqi fuqarolik huquqining ajralmas va yakunlovchi qismi hisoblanib, fuqarolarning xususiy mulk huquqi bilan chambarchas bog'langan.

Fuqarolik qonunchiligida meros huquqi, vorislik asoslari, meros tarkibi, merosning ochilishi, merosxo'rlar tizimi va noloyiq merosxo'rlarni merosdan chetlatish asoslari, vasiyat bo'yicha vorislarning umumiy qoidalari, merosdan majburiy hissa olish huquqni, merosni muhofaza qilish, uni boshqarish, merosni egallashning umumiy qoidalari, merosga bo'lgan huquqni tasdiqlash, merosni taqsimlash, merosdan voz kechish huquqlari, hozir bo'lmagan vorislarning huquqlari, meros-mulkka nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo'lgan shaxslar, meros mulkdan qilinadigan xarajatlar, egasiz qolgan meros mulkining taqdirini belgilash va boshqa merosga oid huquqiy normalar yig'indisidan iboratdir.

Vorislik huquqi tushunchasi. Voris deganda, qonunda belgilab qo'yilgan meros qoldiruvchining qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan avlod va ajdodlari, uning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz boqimlari (qonun bo'yicha vorislar), shuningdek, qonunda belgilangan tartibda va shartlarga rioya qilib, meros qoldiruvchi tomonidan tayinlangan, uning huquq va majburiyatlari olingach, merosning o'tishi lozim bo'lgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan shaxslar (vasiyat bo'yicha vorislar) tushuniladi.

Vorislik huquqi, qonunda belgilangan yoki meros qoldiruvchi tomonidan vasiyatnomada ko'rsatilgan tartibda va shartlarga asosan unga tegishli bo'lgan mulk va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni merosxo'rlarga o'tish tartibini belgilaydi.

Fuqarolik qonunida vorislik deb, marhum fuqaro mulkining qonunlarda belgilangan tartibda bir yoki bir necha shaxslarga (vorislarga) o'tishiga aytiladi.

Vorislik huquqi deb, fuqaroning vafot etganidan so'ng mulkining boshqa shaxslarga (vorislarga) o'tkazilishida vujudga keladigan munosabatlarning tartibga soladigan huquqiy normalar yig'indisiga aytiladi.

Vorislik- bu ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi hisoblanib, mol-mulkni yoki mulkka bo'lgan huquq va majburiyatlarni bir shaxsdan (meros qoldiruvchidan) ikkinchi shaxsga (merosxo'rlarga) o'tishi bilan bog'liq. Shuning uchun ham u hammadan avval, iqtisodiy hodisa sifatida va vafot etgan shaxsning mulkini, mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga o'tish tartibini belgilaydi.

Vorisik huquqi meros huquqining bir bo‘lagi sifatida uning amal qilinishini ta’minlaydi, meros tarkibiga kirgan mol-mulk va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni merosxo‘rlarga o‘tish qoidalarini o‘z ichiga oladi.

Vorisik huquqi fuqarolar vafot etganda ularning ma’lum bir huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga o‘tish tartibini belgilab beruvchi fuqarolik huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir.

Bu fikr ko‘pchilik yuridik adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan isbotlangan.

Shunday qilib, vorislik huquqi-bu meros ochilgan paytda vafot etgan shaxsga tegishli bo‘lgan mol-mulk, mulkiy huquq va majburiyatlarni merosxo‘rlarga o‘tish tartibi va shartlarini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

Demak, vorislik huquqining vazifasi vafot etgan shaxsning mulkiy huquq va majburiyatlarni boshqa shaxslarga, merosxo‘rlarga o‘tishini qonun bilan belgilangan tartibda ta’minlashdan iborat.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hayotda har bir shaxs boshqa bir shaxslar bilan har xil munosabatlarda bo‘ladi. Bu munosabatlar, albatta, shaxsning erkin irodasi bilan vujudga keladi. Vaqt o‘tishi bilan bir munosabat bekor bo‘ladi, ikkinchi bir munosabat vujudga keladi. Munosabatning barchasi shaxsiy yoki mulkiy munosabatlar bo‘lib, ma’lum bir qoidalar bilan tartibga solinadi. Munosabatda turgan har bir shaxs muayyan bir huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Bunday huquq va majburiyat, qoida tariqasida, shaxs vafot etgandan so‘ng ham o‘z kuchini saqlab qoladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning vafot etishi bunday huquq va majburiyatlarning bekor bo‘lishiga olib kelmaydi. Masalan, kredit muassasalariga qo‘yilgan mablag‘, uni qo‘ygan shaxs vafot etganda ham bank omonatni berish majburiyatidan ozod bo‘lmaydi. Majburiyat davom etadi, ammo talab qilish huquqi boshqa shaxslarga o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adgolat, 2022.
3. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. Darslik. T.: 2008.
4. O‘zbekiston Respublikasi fuqarlik kodeksi sharh: Professional sharhlar. T 2. / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Baktria press, 2013, - 768 b.
- 5.Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. –T.: TDYUI, 2009. –B.5-62, 89-114, 115-135.
- 6.Rahmonqulov H. Fuqarolik huquqi muammolari. –T.: TDYUI, 2010. 534 b.
- 7.Rahmonqulov H. Majburiyat huquqi. –Toshkent: TDYUI, 2005.
8. Egamberdiyeva N. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asoslari va shakllari. – Toshkent: TDYUI, 2007. -101 b.